

MAMLAKAT QISHLOQ XO‘JALIGI SANOATI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Axmedova Nafisa Amirddin qizi

“Oriental universiteti” Iqtisodiyot va turizm” kafedrasida katta o‘qituvchisi PhD

nafisaxmedova63@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga bag‘ishlangan ilmiy qarashlarning rivojlanishi, mamlakatda yaratilgan oziq-ovqat mahsulotlari va ratsional ovqatlanish normativlari o‘rtasidagi nisbiy tahlili, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning xorij tajribasi, yashil iqtisodiyotga o‘tish davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy-institusional asoslari, O‘zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanishning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga ta‘siri va muammolarining tahlili, O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari, oziq-ovqat eksporti salohiyatini oshirishda Global G.A.P xalqaro andozasidan foydalanish va eksportini oshirish yo‘llari tadbiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi, Global G.A.P, yashil iqtisodiyot, samaradorlik, tarkibiy o‘zgarishlar, texnologiya, modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish, chorvachilik, dehqonchilik, ratsional ovqatlanish normativlari, huquqiy-institusional asoslari.*

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА СТРАНЫ И ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Ахмедова Нафиса Амирддин кизи

PhD, старший преподаватель кафедры экономики и туризма “Oriental”

университета

nafisaxmedova63@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития научных подходов к обеспечению продовольственной безопасности, сравнительный анализ производимых в стране продуктов питания и норм рационального питания, зарубежный опыт обеспечения продовольственной безопасности, роль

продовольственной безопасности в переходе к зеленой экономике современное состояние и тенденции развития продовольственной безопасности, продовольственная безопасность Правовые и институциональные основы, анализ влияния и проблем рационального использования водных ресурсов в Узбекистане на обеспечение продовольственной безопасности, направления совершенствования механизма обеспечения продовольственной безопасности в Узбекистане, Global GAP в увеличении потенциала экспорта продовольствия.

Ключевые слова: сельское хозяйство, *Global G.A.P.*, зеленая экономика, эффективность, структурные изменения, технологии, модернизация, инновационное развитие, животноводство, фермерство, регулирование рационального питания, правовые и институциональные основы.

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE MECHANISM FOR ENSURING THE COUNTRY'S AGRO-INDUSTRIAL COMPLEX AND FOOD SECURITY

Axmedova Nafisa Amirddin kizi

PhD, Senior Lecturer, Department of Economics and Tourism, Oriental University

nafisaxmedova63@gmail.com

Abstract: The article discusses the development of scientific approaches to ensuring food security, a comparative analysis of food products produced in the country and standards of rational nutrition, foreign experience in ensuring food security, the role of food security in the transition to a green economy, the current state and trends in the development of food security, food security Legal and institutional framework, analysis of the impact and problems of rational use of water resources in Uzbekistan on ensuring food security, directions for improving the mechanism for ensuring food security in Uzbekistan, Global GAP in increasing the potential for food exports.

Keywords: *agriculture, Global G.A.P, green economy, efficiency, structural changes, technology, modernization, innovative development, livestock, farming, regulation of rational nutrition, legal and institutional framework.*

KIRISH

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlarini tartibga solish borasidagi islohotlarning asosiy maqsadi "qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazishdan iborat. Xususan, tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini

kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish"¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarni keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, resurs-tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish va tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va uni tartibga solish vositalari uzoq xorij olimlari J.Addison, G.Bekker, A.Brittain, L.Emmeridj, D.Fridman, P.Samuelson, S.Bryu, K.Makkonnell va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan².

MDH mamlakatlari olimlari A.G.Efendiev, I.A.Bolotina, N.Baryshnikov, Ye.Cherdanseva, A.V.Chayanov, V.Demyanenko, N.P.Ketova, Ye.Serova, V.Ya.Uzun, R.I.Shniper, A.Yu.Yudanov, A.K.Yasterebov, A.Arhipov, N.N.Vashekin, Ye.N.Veduta, A.M.Jondarev, V.K.Senchagov va boshqalar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan³.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

² Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper October No 381, 2001,-P. 19.; Becker G/ Investment in Human Capital // The Journal of Political Economy. 1962.№10 P.42; Brittain A. Full employment in industrialized countries.// Intern. Labour . rev. – Geneve, 1997. –Vol. 137, №3, -P. 293.; Emmerij L. The employment problem and international economy. //Ibid. – 1994.-Vol. 130, №4. - P. 458.; Freedman D. Employment and unemployment in the 1980's : Economic dilemmas and socio – political changes. //Intern. Labour. Rev. – Geneve, 1984. – Vol. 123, №5. - с.567.; Самуэльсон П. Экономика. В.2 т. – М.: МГП «АЛГОН», ВНИИСИ, 1992. 432 с.; Брю С., Макконнелл К. Экономика: принципы, проблемы и политика. В 2 т., пер. с англ. 11-го изд. Т. 1. – М.: «Республика», 1992. -с. 132-175,194-217; Т. 2. - с.156-174,293-310.

³ Эфендиев А.Г., Болотина И.А. Современное российское село. На переломе эпох и реформ. Опыт институционального анализа // Мир России. 2002, №4. -с.83, Барышников Н., Черданцева Е.. Воспроизводство в сельском хозяйстве: приоритеты и перспективы. Монография. Publisher Litres. ISBN 9785040084814, 2017 -С 203. Чаянов А. В. Основные идеи и формы организации крестьянской кооперации. М.: Наука, 1991. с.454.; Демьяненко В., Рылко Д. Проблемы формирования и функционирования рынка сельскохозяйственных земель. - М.: Сборник «Год планеты», 1998. - с.110; Кетова Н.П. Равновесии рынка земли и недвижимости // Макроэкономика. Учебно-методическое пособие. - М.: Ростов н/Д, 1997. – с. 56; Серова Е. АЦ АПЭ, 2000 (<http://management.edu.ru/db/msg/128017.html>); Узин В.Я. Приватизация земли и реорганизация сельскохозяйственных предприятий, идеи, механизмы, результаты, проблемы // Реорганизация сельскохозяйственных предприятий: их эффективность и устойчивое развитие материалы семинара. Голицыно. - М., 1999. - с. 76; Шнипер Р.И., Новоселов А.С. Региональные проблемы рынковедения: Экономический аспект. - Новосибирск, ВО «Наука», 1993. - с. 342; Юданов А.Ю., Аграрный рынок России // Микроэкономика теория и российская практика. -М.: ИТД «Кно Рус», 2002. - с. 132; Ястребова О.К. Введение в агробизнес. - М.: Изд. Московского Университета, 1994. - с.112. Архипов А., Экономическая безопасность: оценка, проблемы способы обеспечения // Вопросы экономики, №2, 1994. –с70-80; Вашешкин Н.П., .Экономическая безопасность: институциональный подход. —М., 2000 .- с. 370 ;

Hozirgi kunda jahonda geosiyosiy vaziyat bilan bog‘liq tebranishlar jiddiy tus olib, oziq-ovqat xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlar tobora ortayotgani shunchaki vahimali gaplar emas. Ma’lumotlarga ko‘ra, sayyoramizda 2,3 milliard odam oziq-ovqat xavfsizligi mo‘tadil yoki o‘tkir mavjud bo‘lmagan sharoitda yashamoqda. Bunda nafaqat ochlik va suvsizlik, balki mavjud oziq-ovqat mahsulotlarining sifatsiz va iste’molga yaroqsiz ekani ham nazarda tutiladi. Ushbu insonlarning 556 million nafari yoki 25 foizi esa Osiyo qit’asida yashaydi.

Muammoning asosiy yechimlaridan biri, albatta, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, yer maydonlaridan unumli foydalanish, yerdan olinadigan hosildorlikni oshirib borish orqali aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashdan iborat. Mamlakatimiz geografik joylashuvi va iqlimi jihatidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga qulay, agrar tarmoqqa iqtisoslashgan, tuprog‘imiz unumdorligi uchun bu borada xavotirimiz kam. Biroq hech narsa o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Ayniqsa, tabiiy ne‘matlar abadiy emasligi, suv taqchilligi muammosi dunyo xalqlari qatori bizga ham xavf solayotgan bir sharoitda mavjud imkoniyatlarimizdan eng yuqori darajada foydalanishimiz zarur.

Shu bois, agrar tarmoqni rivojlantirish, unga ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish asosiy vazifalarimizdan biriga aylangan. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi sohasi ulkan o‘zgarishlarga yuz tutdi. Xususan, qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish va unumdorligini oshirish, foydalanishga yaroqsiz ekin maydonlarida agrotexnik tadbirlar olib borish orqali qayta foydalanishga kiritish, lalmi yerlarni o‘zlashtirish ishlariga jiddiy e‘tibor qaratilyapti.


Mamlakatimiz o‘zining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bilan birga, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlarning oziq-ovqat ta‘minotiga munosib hissa qo‘shayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e‘tirof etilmoqda. Jumladan, BMT “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)”ning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash sohasida “Ming yillik rivojlanish maqsadlari”ga erishgani uchun maxsus mukofotiga sazovor bo‘lgan dunyodagi 14 ta davlatning biri sifatida mamlakatimizning e‘tirof etilgani bu boradagi islohotlarga berilgan munosib baho bo‘ldi.

Xalqaro oziq-ovqat siyosati ilmiy-tadqiqot instituti hisobotlarida ham yurtimizda keyingi yillarda bu borada e‘tirofga sazovor ishlar amalga oshirilayotgani qayd etildi. Oziq-ovqat xavfsizligi masalasida so‘z borganida oziq-ovqat bozori barqarorligiga tahdidlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, oziq-ovqat tovarlari importini qulay bojxona-tarif tartibga solish bo‘yicha choralarni belgilash maqsadida ishlab

Ведута Е.Н. Стратегия экономическая политика государства. -М.: Акад. Проект, 2004. - с.300.; Жондарев А.М., Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник.. МИ.Я: изд. РАГС, 2001. –с.459; Сенчагов В.К. Экономическая безопасность: геополитика, глобализация, самосохранение и развитие / Книга четвертая. Ин-т Экономики РАН. -М.: ЗАО Финстатинформ, 2002. - с.128.

chiqilgan «2019-2024 yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash Milliy dasturi» ham aynan shu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Fikrimizcha, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini tartibga solish, oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati jihatidan talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish zarur (1-rasm).



1-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish mexanizmi⁴

1-rasmda ifodalangan mexanizmning asosiy qoida va tamoyillari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1) oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va aholiga yetkazishga mas'ul idora va tashkilotlar (Qishloq xo'jaligi vazirligi, Statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va h.k.), Sog'liqni saqlash vazirligi (jumladan, Sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati) va uning hududiy boshqarmalari bilan bir qatorda mahalliy hokimiyat va mahallaning o'zaro uyg'un, faol va izchil faoliyatini ta'minlash;

2) oziq-ovqat xavfsizligi darajasini aniqlashda asosiy e'tiborni mehnatning og'irligi va kasb guruhlari, iqlim va ovqatlanish milliy xususiyatlari, quvvatga va asosiy oziq-ovqat moddalariga fiziologik ehtiyoj, aholining jinsiy, yosh tarkibi va alohida xususiyatlari kabi unsurlardan tarkib topuvchi rasional ovqatlanish oziq-ovqat me'yorlariga qaratish;

⁴ Муаллиф ишланмаси асосида тузилган.

3) aholining muayyan davrdagi oziq-ovqatga ehtiyoji va uning amaldagi iste'moli o'rtasidagi tafovutni aniqlashda oziq-ovqat turi, kaloriyasi va sifati bo'yicha yondashish;

4) oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish mexanizmining asosiy maqsadi sifatida nafaqat oziq-ovqatga ehtiyoj va uning amaldagi iste'moli o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, balki oziq-ovqat iste'molini miqdor va sifat jihatdan takomillashtirishni belgilash.

Shu bilan birga, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati va savdo tarmog'ida strategiya va dasturlarning ijrosiga bog'liqligini hisobga olgan holda soha va tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim.

METODOLOGIYA

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan nazariy-uslubiy taklif va tavsiyalardan oziq-ovqat xavfsizlinini ta'minlashni mexanizmini takomillashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni amalga oshirish bilan bog'liq maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda nazariy-metodologik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan amaliy taklif va tavsiyalardan respublikada ishlab chiqiladigan dasturiy hujjatlar ("yo'l xaritalari")ni tayyorlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Tarmoqlar iqtisodiyoti", "Iqtisodiyot", "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish", "Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar", "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" kabi fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonlarida ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kundagi global darajadagi iqtisodiy muammolardan sanalgan oziq-ovqat-xavfsizligini ta'minlash mamlakatimizda alohida o'rin tutadi. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi ustidan davlat nazoratini yagona tizim orqali boshqarish, bunda turli idoralardagi funksiyalarni yagona tizimga keltirib, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi inspeksiyasini tashkil etish lozim:

- mamlakatimizda «daladan-iste'molgacha» zanjirida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini nazorat qilish tizimini kuchaytirish, xalqaro talablardan kelib chiqib, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi darajasini tekshirish va tahlil qilish bo'yicha laboratoriyalar tizimini rivojlantirish;

- oziq-ovqat mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni iste'molchilarga to'liq yetkazish;

- jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalari asosida oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida tuz, qand va yog' miqdorini inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz hamda zararsiz bo'lgan me'yor ko'rsatkichlarini belgilash;

- biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqarish va ularni ro'yxatdan o'tkazish tizimini takomillashtirish;

- import va mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) va sanoat transyog'lari bo'lishi xavfini baholash maqsadga muvofiq.

Prezidentning Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi tasdiqlandi. Uning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlash hamda aholining barcha qatlamlari sog'lom va faol hayot kechirishi uchun tabiiy, moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanishning samarali iqtisodiy va ekologik boshqaruv tizimlarini joriy qilish;

- erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan mexanizmlar orqali strategik ahamiyatga ega qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hamda ularning xomashyo zaxiralarini yaratish;

- oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlash jarayonida tabiiy va texnogen ofatlar, global siyosiy va iqtisodiy inqirozlar, pandemiya, harbiy amaliyot va boshqa hodisalarning salbiy ta'siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish, shuningdek, xabardor qilish va monitoring platformasini yaratish maqsadga muvofiq;

- oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlash hamda aholining barcha qatlamlari sog'lom va faol hayot kechirishi uchun tabiiy, moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanishning samarali iqtisodiy va ekologik boshqaruv tizimlarini joriy qilish;

- erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan mexanizmlar orqali strategik ahamiyatga ega qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hamda ularning xomashyo zaxiralarini yaratish;

- oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlash jarayonida tabiiy va texnogen ofatlar, global siyosiy va iqtisodiy inqirozlar, pandemiya, harbiy amaliyot va boshqa hodisalarning salbiy ta'siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish, shuningdek, xabardor qilish va monitoring platformasini yaratish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun ijtimoiy himoya milliy tizimlarini takomillashtirish va ularning barqarorligini ta'minlash;

Muammolarni bartaraf etish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshirish, aholining faol va sog'lom hayoti uchun zarur bo'lgan yetarli miqdordagi xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari uchun jismoniy va iqtisodiy imkoniyatga ega bo'lishi, mahsulotlarni sifatini yaxshilash, narxlar barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- respublikaning barcha hududlari darajasida belgilangan maqsadli mezonlarni bajarishni ta'minlovchi agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni tartibga solish va boshqarish tizimini joriy qilish;

- oziq-ovqat xavfsizligini aniqlash, baholash va kutilishi mumkin bo'lgan xavfni oldindan bilish tizimini joriy qilish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan korxonalar tarmog'ini kengaytirish;

- meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashga ixtisoslashgan sovutish kameralari, ularni saralash va qadoqlash punktlari hamda tashish bilan shug'ullanuvchi maxsus transport-kommunikatsiya tarmog'ini kengaytirish;

- qayta ishlash sanoatining material va energiya sig'imini pasaytirish, resurs tejovchi kam chiqimli texnologiyalarga ustuvorlik berish;

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va suv resurslaridan oqilona foydalanish;

- asosiy turdagi qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari, xom-ashyoni ichki ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish;

- chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik sohasini barqaror rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish xajmlarini ko'paytirish, ozuqa bazasini mustahkamlash;

- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash;

- aholini barcha qatlamlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi uchun iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish;

- meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va bir vaqtning o'zida qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi ishlab chiqarish majmualari, xoldinglar, klasterlar va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari faoliyatini kengaytirish;

- qishloq joylarda meva-sabzavot va uzumni qayta ishlovchi korxonalar uchun zarur bo'lgan infratuzilmalar, birinchi navbatda yo'llar, gaz, elektr va suv ta'minoti hamda boshqa injenerlik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan uzluksiz ta'minlashni yo'lga qo'yish va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, qishloq xo‘jaligi korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash dasturlari doirasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun kreditlarni garovsiz berish maqsadga muvofiq. Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish natijasida respublikamiz agrar sektorini shaffof kreditlash va tarmoqni rivojlantirishga erishiladi.

Shu bilan birga Yevropa Ittifoqi benefitsiar mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun Preferensiyalar bosh tizimi plyus (GSP+) ni keyingi to‘rt yilga – 2027-yil 31-dekabrgacha uzaytirishga qaror qildi.

Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrian GSP+ ushbu mamlakatda xususiy sektor rivojiga katta turtki berishi, 448 millionlik Yevropa bozoriga chiqishni osonlashtirishi, Yevropa va O‘zbekiston kompaniyalari o‘rtasida yaqin hamkorlikni rag‘batlantirish va chegaralarda sezilarli darajada tejash imkonini berishini ta‘kidladi.

Uning ta‘kidlashicha, O‘zbekiston GSP+ dasturiga qo‘shilganidan so‘ng uning Yevropa Ittifoqiga eksporti sezilarli darajada oshgan.

«2019-2022-yillar oralig‘ida O‘zbekistondan GSP doirasida Yevropa Ittifoqiga import qilinadigan tovarlar qiymati to‘rt baravardan ortiq o‘ydi va 2022-yili 450 million yevrodan oshdi (har bir Yevropalik iste‘molchi uchun deyarli bir evro). O‘zbekistondan GSP mezonlariga javob beradigan tovarlar eksporti 2019-yili 93 million evroni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yili bu ko‘rsatkich 450 millionni tashkil etdi. 2022-yili GSP+ tufayli o‘zbekistonlik eksportchilar import bojlari bo‘yicha 28 million yevroni tejab qolishgan. Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston xususiy sektorini rivojlantirishga qo‘shgan katta hissasidir. 2019 va 2022 yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich o‘n baravardan ko‘proq o‘ydi.

Fikrimizcha Yevropa Ittifoqining GSP+ dasturi O‘zbekistonning 27 ta xalqaro konvensiyani amalga oshirish orqali mehnat va inson huquqlari, samarali boshqaruv va atrof-muhit sohasidagi xalqaro standartlarga rioya qilish strategiyasiga mos keladi.

GSP+ – rivojlanayotgan mamlakatlarning eksport daromadlarini oshirish, sanoatlashtirish va iqtisodiy o‘rinishni jadallashtirishga ko‘maklashishga qaratilgan yagona maqsad va tamoyillarga asoslangan milliy imtiyozli sxemalar tizimi. GSP+ g‘oyasi rivojlangan mamlakatlardan imtiyozlar berish, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar bozorlariga yetkazib beriladigan tovarlarning ayrim turlari bo‘yicha tarif stavkalarini kamaytirish yoki bekor qilishni nazarda tutadi.

GSP+ sxemasi O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘rtasidagi savdo hajmini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi, chunki bunday maqomni olgan mamlakat Yevropa bozoriga 6000 dan ortiq turdagi tovarlarni eksport qilishda soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

GSP+ sxemasiga qo‘shilish orqali past va past o‘rta daromadli davlatlar inson va mehnat huquqlari, atrof-muhit va iqlimni muhofaza qilish hamda samarali boshqaruv bo‘yicha 27 ta asosiy xalqaro konvensiyani samarali amalga oshirish majburiyatini oladilar. GSP reglamenti GSP + oluvchilari tomonidan o‘z majburiyatlarini bajarilishi ustidan doimiy monitoringni ta‘minlaydi.

Hozirgacha dunyoning faqat sakkizta davlati bunday imtiyozli shartlardan foydalanish imkoniga ega va O‘zbekiston GSP+ tizimiga oxirgi bo‘lib ulandi.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari jahon standartlariga javob bermaydi masalan: O‘zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qandi ko‘pligi, transport logistika tizimini qimmatligi, uzoq masofaga transport orqali yetkazishdagi muammolarni mavjudligi, mablag‘ muammosi va boshqalarni aytishimiz mumkin. Shu bilan birga Global GAP va ISO 22 000 HACCP xalqaro sifat standartlarini joriy etish orqali jahon bozorida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport hajmi ortadi.

O‘zbekistonda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy-me‘yopiy asoslari shakllantirilgan va takomillashtirib borilmoqda. Bunda xalqaro hamkorlik aloqalariga ham alohida urg‘u berilgan. Xususan, Yevropa ittifoqining “GSP+” dasturi O‘zbekiston uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosini ko‘paytirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar taqdim etadi. “GSP+” qamrab olayotgan mahsulot liniyalarining uchdan ikki qismiga nisbatan boj tariflari to‘liq bekor qilinadi. Shuningdek, JCT talablari asosida jahon bozoriga erkin kirib borish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatini yaratadi. Oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror qishloq xo‘jaligi uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «O‘ZBEKISTON — 2030» Strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risidagi PQ-5009-son qarori.
4. Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper October No 381, 2001, - P. 19.
5. Самуэлсон П. Экономика. В.2 т. – М.: МГП О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «АЛГОН», ВНИИСИ, 1992. 432 с.
6. Брю С., Макконнелл К. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2 т., пер. с англ. 11-го изд. Т. 1. – М.: «Республика», 1992. -с. 132-175,194-217; Т. 2. - с.156-174,293-310.

7. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – T.: «Akademiya», 2012.
8. Aliev Ya.E. “Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalari” Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali ii son. mart-aprel, 2020, 198 b.
9. Balabanov V.S., Borisenko E.N. Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar. – M.: Iqtisodiyot, 2012. – B. 22.
10. Frolov K.V., Gordeev A.V., Maslennikova O.A. va boshqalar. Oziq-ovqat xavfsizligi. 2-bo'lim / - M.: Bilim, 2011, - 101 b.
11. Topildiev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. - Iqt. fan. dok. dis. - T.: «Tipograff» MCHJ. 2023.-70 b.
12. Altiev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. – T. Fan, 2018. Monografiya. - 274 b.
13. Tadjibaeva D. Milliy iqtisodiyotda institutsional o‘zgarishlar samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. (O‘zbekiston Respublikasi agrar sohasida misolida) Iqt. fan. dok. dis. avtoref . - T.: O‘zRIIVA, 2020. – 81 b.
14. Rustamova I.B. Agrar sohada innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy uslubiy asoslari. avt. i.f.d. T.: 2020. - 77 b.
15. Dusmatov B.O. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrasanoat ishlab chiqarishda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. avt. ... i.f.d. T.:2022. -53 b.
16. Axmedova N.A. Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish avt. i.f.f.d T.: 2024. – 42 b.